

**Namangan shahar maktabgacha ta'lim bo'limi hamda "Madad Fayz Savdo Servis"
MCHJ o'rtasida shartnoma qiymati 28 635 500 so'mlik oziq-ovqat mahsulotlarini
yetkazib berish to'g'risidagi shartnoma loyihasining qonunchilikka muvofiqligi
yuzasidan**

XULOSA № RK77301311

2022-yil 20-yanvar

Namangan shahar

Men Namangan shahar yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti Jakbarov Doniyor Foziljon o'g'li Namangan shahar maktabgacha ta'lim bo'limining 2022-yil 19-yanvarda markazga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun kiritilgan "Madad Fayz Savdo Servis" MCHJ bilan qiymati **28 635 500** so'mlik oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish to'g'risidagi shartnoma loyihasining qonunchilikka muvofiqligini tegishli tartibda o'rgangan holda quyidagilarni ma'lum qilaman:

- ✓ Mazkur shartnomada ko'rsatilgan munosabatlar "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solingan;
- ✓ Shartnoma shartlari "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 10-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 354-moddasi talablariga mos keladi;
- ✓ Taraflarning javobgarligi va nizolarni hal etish tartibi belgilangan.

Yuqoridagilarni inobatga olib hamda Namangan viloyat hokimining birinchi o'rinbosari T.Yusupov tomonidan tasdiqlangan yanvar oyi uchun mo'ljallangan oziq-ovqat narxlari keltirilgan ma'lumotnomaga asosan, mazkur shartnoma loyihasi taraflar tomonidan belgilangan tartibda imzolanishi mumkin deb hisoblanadi.

Bunda, yuridik markaz mahsulot birligi, miqdori, qiymati va sifati bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi hamda tegishli qonun hujjatlari talablariga muvofiq shartnomani muqobil tijorat takliflarni o'rganib chiqqan holda tuzishni tavsiya qiladi.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-son qarori bilan tasdiqlangan ro'yxatning 27-bandiga muvofiq, kelgusida maktabgacha ta'lim muassasalari uchun oziq-ovqat mahsulotlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi PF-5590-son va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-yanvardagi 16-son qarori talablariga asosan mijozlarni ovqat bilan ta'minlash autsorsingga o'tkazilishi tavsiya etiladi.

Markaz bosh yuriskonsulti



D.F.Jakbarov